Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими
бюджетларининг ғазна ижроси қоидаларига
8-ИЛОВА

**17.01.2022 даги**

**O'ZBEKTELEKOM ва Шофиркон туман ирригация булими ўртасида 120000 сўм умумий суммага тузилган 28619782 - сонли шартномага**

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ***

Боб 170

Шахсий ғазна хисобварак 100022860062587042402170001

сўмда

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | Жами |
|---|---|---|---|---|
| | 4292100 | | | |
| Январь | 120 000,00 | | | 120 000,00 |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Жами йил бўйича** | **120 000,00** | | | **120 000,00** |

Жами 120000 сўм — Бир юзи йигирма минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 100 % жорий ойда 2022 йил давомида хар ойнинг 30 чи санасигача ойлик равишда ойма-ой олдиндан тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига ______% жорий ойнинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун хужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи рахбари ________ (имзо) Очилов Давлвт Казокович. Ф.И.Ш.

М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери ________ (имзо) Махмудов Кенжа Тураевич Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг ходими қабул қилди ________ (имзо)

«___» _________________ 20___й.

Буюртмачи ходими қабул қилди ________ (имзо)

«___» _________________20___й.

## 28619782 SONLI
## MOBIL ALOQA XIZMATLARI KURSATILISHI TUGRISIDA ABONENT SHARTNOMASI

17.01.2022 yil. Shofirkon t.(Sh).

**"Uzbektelekom" aksiyadorlik jamiyati** (keyingi urinlarda matnda - jamiyat deb yuritiladi) nomidan 30.12.2021 yildagi №27-01-14/6020-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi jamiyatninig **"UzMobayl" filiali direktori S.S.Faxrutdinov, bundan buyon "Operator"** deb nomlanuvchi, bir tomondan va **SHOFIRKON TUMANI IRRIGATSIYA BULIMI** nomidan Ustav (Nizom, ruyxatga olinganlik tugrisidagi guvoxnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi SHOFIRKON TUMANI IRRIGATSIYA BULIMI, bundan buyon "Abonent" deb nomlanuvchi, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, telekommunikatsiya xizmatlarini kursatish tugrisida Abonent shartnomasini (keyingi urinlarda matnda - Shartnoma deb yuritiladi) kuyidagilar xakida tuzdilar:

1.Shartnoma predmeti.

1.1 .Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

-Operatorning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida e’lon kilingan Uzbekistan Respublikasi fukarolik kodeksnning 367-369-moddalariga muvofik "Uzbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini korsatish togrisida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bulgan Ommaviy ofertasi (keyingi urinlarda - Oferta) shartlari bilan tulik tanishib chikkanligini tasdiklab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan mobil aloka xizmatlarini kursatilishi tugrisida shartnoma tuzadi;

-Operator tomonidan kursatiladigan mobil aloka xizmatlari uchun Abonent Dastlabki avans tulovini amalga oshirnshi va tulov faktini tasdiklovchi tegishli moliyaviy xujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini suzsiz kabul kilishi (akseptini) xisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida kursatilgan maksadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan sung, Operator Abonentga identifikatsiya rakamini beradi. Identifikatsiya rasami berilganidan sung, Abonent, Operator tomonidan takdim etiladigan xizmatlar ruyxati doirasida uz tanlovidan kelib chikib, Dastlabki avans tulovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat kursatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi mavjudligidan kelib chikkan xolda belgilanadi.

### 2.Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaktdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilagan xukuk va majburiyatlarga ega buladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaktdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan xukuk va majburiyatlarga ega buladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal kilish davrida, uzaro xamkorlikda faoliyat yuritishda umume’tirof etilgan madaniyatga amal kilingan xolda, uz xukuk va majburiyatlariga katiy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradilar.

### 3.Hisob-kitob va tulovlar tartibi.

3.1. Mazkur Shartnoma buyicha Ofertaning 6-moddasiga muvofik, mobil aloka xizmati uchun ushbu Shartnoma asosida Xizmatlar kursatilishidan oldin tulovni amalga oshirish (Prepaid) tizimi shartlari tatbik etiladi va oylik xisob 100 (yuz) foiz mikdorida oldindan tulanadi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator Xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada kursatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaktda belgilangan barcha soliklar va yigimlarni uz ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent tulovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Z.ZT.Ilk bor ulanishda Abonent tulovi 100 (yuz) foiz mikdorida oldindan tulanadi. Dastlabki avans tulovi oldindan tulov buyicha talabnoma (xisob) asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Budjet tashkiloti bulgan Abonent uchun Shartnomaning umumiy summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi buyicha) muvofik kursatilgan xizmatlar xajmi bilan belgilanadi.

**Shartnomaning umumiy summasi (KKSni xisobga olgan xolda) 120000 (Bir yuz yig ming) sumni tashkil etadi.**

Ushbu summa 120000 (Bir yuz yigirma ming ) sum mikdoridagi Abonent tulovini xam ______________________________________________

(____________________________) mikdoridagi bir martalik tulovni uz ichiga oladi.

3.4.1.Mazkur Shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan takdirda, ortikcha summa Tomonlar urtasida imzolangan kushimcha kelishuv takdim etilgan xisob-faktura asosida tulanadi.

3.5. Abonent keyingi xisob-kitob davri (xisobot oyi) boshlangunga kadar oldindan tulovning 100 (yuz) foiz sharti bilan xar oyda Xizmatlar uchun tulovni amalga oshiradi. Ushbu tulov Shartnomaning 8-moddasida kursatilgan Operatorning shaxsiy xisob rakamlariga pul mablaglarini kursatilgan xizmatlar xisobiga olgan xolda, tanlangan xajm va tariflar/tarif rejalariga muvofik utkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) xisob rakamida xizmatlar kursatish uchun yetarli mablag bulmasa. Operator ushbu Shartnoma buyicha xizmatlar kursatilishini tuxtatadi.

3.7.Operator tomonidan ulangan va takdim etilgan Xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu Xizmatlar uchun tulovlarni amalga oshirmasligiga asos bula olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator Xizmatlaridan foydalanishni vaktincha tuxtatishni, shuningdek, xisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan tulovlarning oldini olishni istasa, Abonent xisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka kilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka kilish tartibi Oferta koidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatordan bonuslar kurinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga takdim etilgan barcha mablaglar fakat Operator Xizmatlari uchun tulanishi mumkin va Shartnoma bekor kilinganda Abonentga pul shaklida tulanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9.Operator tomonidan takdim etilgan Xizmatlar, Shartnomaga muvofik Xizmat uchun alosida rasmiylashtiriladigan xisob-faktura bilan yopiladi. xar bir xisob-fakturada takdim etilgan xizmatlarning tulik kalendar oyi uchun umumiy mikdori kursatiladi.

3.9.1.Agar Abonent 10 (un) ish kuni mobaynida Operator tomonidan takdim etilgan xisob-faktura buyicha uz e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklda takdim etmasa, ushbu Xizmat turi buyicha xisob-faktura kabul kilingan va Xizmatlar tegishli tarzda kursatilgan deb xisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan takdirda, Operator keyingi kalendar oyida takdim etiladigan Xizmatlar uchun tulov talabnomasida (xisobida, xdsob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

ZLO.Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) xisob rakamining balansi salbiy bulganida 1 (bir) kalendar oydan oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga Xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

## 4.Tomonlar javobgarligi.

4.1.Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofik belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun Uzbekistan Respublikasi konun xujjatlarida xamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va mikdorlarda javobgar buladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish xolatlari bundan mustasno).

## 5.Nizolarni xal kilish tartibi.

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan boglik masalalar buyicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida Uzbekiston Respublikasi konunchiligiga muvofik xamda nizolarni sudgacha xal etish tartibiga rioya Kilingan xolda uzaro kelishuv orkali xal kilinadi.

5.2. Tomonlar urtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni uzaro kelishuv orkali xal etishning imkoni bulmagan takdirda, nizolar Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlariga muvofik tegishli iqtisodiy sudda kurib chikilib hal qilinadi.

## 6. Aloxida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal kilish davrida uz xukuklari va majburiyatlari bilan boglik ravishda Uzbekiston Respblikasining korrupsiyaga karshi kurashishni tartibga soluvchi konun xujjatlari normalarini buzishi mumkin bulgan xar kanday choralar kurmasliklari yoki xatti-xarakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini kat'iy e'tirof etgan xolda, uzaro xamkorlik madaniyatini yukori darajada ta'minlash va korrupsiya xolatlariga murosasiz kurashish choralarini kuradi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal kilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga boglik bulmagan xar kanday xolatlarda va xodisalarda (yengib bulmaydigan kuchlar/fors-major xolatlari) Ofertaning 10-moddasi koidalariga amal kilinadi.

Кўриб чиққан юрист: HAMROYEV NODIRJON NAIMOVICH; Хужжат рақами: LH0245445223

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda takdim etilgan ariza/e'tiroznoma/shikoyat/taklif kurinishidagi murojaati kupi bilan 30 (uttiz) kun davomida kurib chikiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni kurib chikish uchun 15 (un besh) kundan ortik muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu xakda majburiy ravishda xabardor kilinadi.

**7. Yakuniy qoidalar.**

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muxim shartlari Ofertaga muvofik belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan xollarda Tomonlar Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlariga amal kiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar urtasida imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va **joriy moliya yili davomida ya'ni, 2022 yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.**

Agar, Shartnomaning belgilangan amal kilish muddati tugaganidan sung, Tomonlar (budjet tashkiloti bulgan Abonentga tatbik etilmaydi) uz shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning xech biri uning bekor kilinishini e'lon kilmagan bulsa, Shartnoma xar bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. O'zbekiston Ruspublikasi Budjet Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda **G'aznachilikda ro'yxatga olingandan so'ng joriy moliya yili davomida ya'ni, 2022 yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.**

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini kabul kilganligi xakidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon kilingan Oferta, ilova va kushimchalar (agar mavjud bulsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent urtasida tulik Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis xujjatlari (mulkdorlari) uzgargan takdirda, shu jumladan tashkiliy-xukukiy shaklining uzgarishi va boshka uzgarishlar ruy bergan takdirda, Shartnoma uz kuchida qoladi. Tomonlar bunday uzgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (un) kalendar kun ichida bir-birlarini xabardor kilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga uzgartirishlar va kushimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bulsa) va ushbu xarakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan xamda Tomonlarning muxrlari (mavjud bulgan takdirda) bilan tasdiklangan bulsa, xakikiy xisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan (xar bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi).

**8.Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari**

| Operator | Abonent: |
|---|---|
| **"O'zbektelekom" AJ UzMobayl" filiali** | **Shofirkon tuman Irrigatsiya bo'limi** |
| Manzil: 100015, Toshkent Shahri Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi 8 uy. | Adres: Shofirkon Sultonobod kuchasi |
| STIR: 203366731 | _Tel/faks __5024375___sh: |
| MFO: 00014 | xv _10002286006258704240217000l_ |
| IFUT: 61100 | INN: __207264753__ OKONX:_01613___ |
| h\r: 20210000404074838035 | G'aznasilik bo'lim nomi: Shofirkon tuman G'aznachilik bo'linmasi |
| Aloqa bank | G'azna X/V: 23402000300100001010 |
| Tel:998367757,998367767 | Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank XKKM |
| | MFO: 00014_ |
| | G'azna STIRi: 201122919 |
| Raxbar: ____________ S.Faxritdinov | Raxbar ____________ D.Ochilov |
| Imzo: (F.I.Sh) | Imzo: (F.I.Sh) |

O'ZBEKTELEKOM O'ZMOBAYL FILIALI

...он рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: LH0245445223

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA

YURIDIK XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha abonent shartnomasi.

Shofirkon tuman Irrigatsiya bo’limi va O‘zbektelekom Aksionerlik Jamiyati Uzmobayl filiali o’rtasidagi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatish haqidagi shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Shofirkon tuman Irrigatsiya bo’limi tomonidan 2022-yil 14-yanvar sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **N.Hamroyev**